

Sen o‘zing ayt, onajon

Tasma-tasma tarixing
Tugamas yozgan bilan.
Ko‘shkingu ko‘rkingni ko‘z
Ilg‘amas yozgan bilan.
Har minoring osti ming
Ignada qazgan bilan...
Sen o‘zing ayt Onajon,
Sen o‘zing aytgil, Vatan.

...Turfa bu dunyoni qo‘y,
Ko‘hna u dunyoni ayt,
Jonni jon aylar ruhu
Ruhdagi ziyodan ayt.
Duru gavharin terib,
Shomdan ayt, Rumodan ayt,
Beruniy bobodan ayt,
Najmiddin Kubrodan ayt.
Sen o‘zing ayt, Onajon,
Sen o‘zing aytgil, Vatan.

Ko‘rsin u so‘qir tarix
Titgan har mahmadona,
Bo‘yrangning etagidan
To‘kilmish bor an‘ana.
Temurning jilmaygani
O‘ttiz elda tantana,
Alisherga bo‘yi teng
Alisher qayda yana?..
Sen o‘zing ayt, Onajon,
Sen o‘zing aytgil, Vatan.

Yetti iqlimni kezib,
Rizq to‘kib abad-azal,
Zohiring suvday tiniq.
Botining — zarbulmas,
Topganing oriyatu
Sochganing — Tojimahal...
Sen o‘zing ayt, Onajon,
Sen o‘zing aytgil, Vatan.

Aslingga qaytgil faqat,
Ortga qaytmoq bo‘lmasin.
Aytgin-aytgin bu sharaf,
Ko‘zingda nurlar so‘nmasin,
Ko‘nglingda gullar so‘lmasin.
Sen o‘zing ayt, Onajon,
Sen o‘zing aytgil, Vatan.

Bo'lsa har ko'ksida yol,
Bir bolang yo'lbarsyurak,
Qaddi qoshingda cho'kib,
Tog' bo'lur ikki bo'lak.
Bas, senga joni fido
Sen o'zing ayt, Onajon,
Sen o'zing aytgil, Vatan.

Mardi maydonlar kerak,
Botir o'g'lonlar kerak,
Qodir o'g'lonlar kerak...
Sen o'zing ayt, Onajon,
Sen o'zing aytgil, Vatan.

Men netib shoir o'lay,
Bir qalam o'ynatmasam,
Jon qadar bir so'z so'rab,
Bir kalom she'r aytmasam.
Dilni ming ko'yga solib,
Jonni ming tebratmasam,
Maylimi, Muhammading
Tonggacha uxlatmasam?..
Sen o'zing ayt, Onajon,
Sen o'zing aytgil, Vatan!

Muhammad Yusuf
O'zbekiston xalq shoiri.
O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasidan.